

“BO’LAJAK PEDAGOGLARNING O’ZIGA ISHONCHINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI”

Buxoro Xalqaro Universiteti

1-bosqich magistranti

Xosila Raxmatulloyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo’lajak pedagoglarning o’ziga ishonchining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ularni rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. O’ziga ishonch pedagogning kasbiy faoliyatida muhim rol o’ynaydi, ta’lim jarayonida samarali ishlashga yordam beradi va talabalar bilan muloqotni osonlashtiradi.

Kalit so’zlar: O’ziga ishonch, pedagog, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, shaxsiy rivojlanish, pedagogik metodlar, trening, monitoring, stress,

Bo’lajak pedagoglar faoliyatda ishonchning roli juda muhim hisoblanadi chunki bo’lajak pedagoglar o’z qobiliyatlariga va is’tedodiga ishonmasa, u pedagogning ta’lim jarayonidagi faoliyati qiyinlashadi. Psixologik tadqiqotlar o’ziga ishonchning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari mavjudligini ko’rsatadi va bu pedagogik faoliyat jarayonida pedagoglar tomonidan qo’llanilishi muhimdir. O’ziga ishonch har bir shaxsning o’z ichki hissiyotlardan biri bo’lib hisoblanib, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatning eng asosiy omillaridan biri bo’lib hisoblanadi. Nafaqat bo’lajak pedagoglar balki har bir pedagog o’z kasbiy mahorati va malakasi hamda shaxsiy salohiyatiga va mahoratiga ishonish orqali o’quvchilarga samarali ta’lim va tarbiya bera oladi. Psixologik qarashlar va tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, insondagi ishonch har bir shaxsning o’z qobiliyatini ochish uni rivojlantirish atrof-muhitdagilar bilan ijtimoiy muloqotini ochib berishga va o’zi mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi va stressga chidamliligini oshiradi. Buning uchu bo’lajak pedagoglarga o’ziga ishonchini rivojlantirishning quyidagi usullarni ko’ramiz.

O’ziga ishonchni rivojlantirish usullari

1. Pedagogik treninglar va simulatsiyalar
2. Mentoring va tajriba almashish
3. Ijobiy fikr va muvaffaqiyatlarni qayd qilish
4. Shaxsiy va professional maqsadlar qo’yish
5. Stressni boshqarish va emotsional barqarorlikni oshirish

Pedagogik treninglar

Pedagogik treninglar – bu bo’lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini oshirish, ularning o’ziga ishonchini shakllantirish va muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus interaktiv mashg’ulotlar. Treninglar amaliy faoliyatga yo’naltirilgan bo’lib, Trening pedagogik-psixologik jihadan

tajribaga va malakaga ega mutaxassislar tarafidan tashkil qilinadi , qatnashchilarga real hayotiy vaziyatlarni tasavvur qilish va simulatsiyalar (Simulyatsiya – bu real hayotiy vaziyat yoki jarayonni sun'iy muhitda, nazariy yoki amaliy tarzda qayta yaratishdir) qilish orqali ko'nikmalarni o'rgatadi. Bu orqaliy bo'lakak pedagoglarning haqiqiy hayotiy vaziyatlarda o'quvchilar bilan duch keladigan turli muammolarni oldindan mashq qiladilar.

Monitoring va tajriba almashish

Monitoring – bu pedagogning faoliyati va rivojlanish jarayonini doimiy nazorat qilish va baholash tizimidir. U bo'lajak pedagoglarga o'z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Tajriba almashish – bu pedagoglar o'rtasida kasbiy tajriba, metod va texnikalarni va o'z bilimlarini o'zaro almashish va bir birlari bilan bo'lishish jarayonidir. Bu usul bo'lajak pedagoglarga boshqa pedagoglarning muvaffaqiyatli tajribasidan foydalanish imkonini beradi. Bu malaka oshirish kurslari, seminarlar va treninglar orqaliy tajriba almashish mumkun.

Ijobiy fikr va muvaffaqiyatlarni qayd qilish

Ijobiy fikr va muvaffaqiyatlarni qayd qilish – bu pedagogning o'z faoliyatida erishgan natijalarini qayt qilish va tahlil qilib borish , ijobiy tomonlarini aniqlash , rivojlantirish va qayd qilish jarayonidir. Bo'lajak pedagoglarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga, motivatsiyasini rivojlantirishga va mustahkamlashga hamda kasbiy rivojlanishiga katta yordam beradi.

Shaxsiy va professional maqsadlar qo'yish

Shaxsiy va professional maqsadlar qo'yish – pedagogning o'z faoliyatini rejalashtirish o'z faoliyatni qat'iy belgilab olishi va aniq maqsadlar qo'yishi va rivojlantirish jarayonidir. Bu usul bo'lajak pedagoglarga o'z kuchli tomonlarini aniqlash va aniq maqsadga yunaltirib rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va kasbiy maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Stressni boshqarish va emotsional barqarorlikni oshirish

Stressni boshqarish va emotsional barqarorlik – pedagogning o'z kasbiy faoliyatidagi turli qiyinchiliklar va muammolarni samarali hal etish va yengib o'tish qobiliyatidir. Bo'lajak pedagoglarga o'z ishini turli salbiy emotsiyalarga berilmasdan xavotirsiz va samarali olib borish imkoniyatlarni beradi.

Bo'lajak pedagoglarning o'ziga bo'lgan ishonchi ularning o'z kasbiy faoliyatida va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda pedagogik treninglar, monitoring, tajriba almashish, ijobiy fikr va muvaffaqiyatlarni qayd qilish, shaxsiy va professional maqsadlar qo'yish va stressni boshqarish kabi usullarini o'rganish va qo'lash bo'lajak pedagoglarning pedagogik faoliyatni yanada samarali qiladi.

Foydalangan Adabiyotlar:

1. Shapiro L. O'qituvchi shaxsining rivoji. — Moskva: Pedagogika, 2017.
2. Ismailov, T. (2015). Pedagogik psixologiya. Tashkent: Sharq
3. Karpova, I. P. (2010). Psikhologiya lichnosti i samosoznanie. Moscow: Akademiya.
4. G'oziev E. Umumiy psixologiya. — Toshkent: Fan, 2019.

